# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№7



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 655 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS


Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish ....14
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli ....20
**Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich**

BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili ....26
**Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.**

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish ....31
**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**

Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli....35
**Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi**

Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху ....40
**Явкачев Шохзод Зайниддин углы**

Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector ....49
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari ....56
**Djalilov G'ayrat Qaxramanovich**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ....66
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich**

O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ....71
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане....76
**Salimov Sherzod Baxtiyorovich**

Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan ....81
**S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari....88
**Muxamedov Ravshan Zafarovich**

Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari....93
**Homidov Baxtiyor Rahimberdievich**

Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati....99
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**

Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash ....105
**Uraqov Shokir Ulashovich**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari....112
**Istamova Sojida Kaxarovna**

The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan ....117
**Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna**

Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari ....126
**Muradov Botir Xayat**

Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки ....136
**Салимова Юлдуз Исаковна**

Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance ....141
**Karlibaeva Gulshat**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari ........ 147
**Absamatov Anvar Ergashovich**

Перспективы цифрового развития сектора материального производства ........ 153
**С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева**

«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» ........ 161
**Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu**

Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan ........ 169
**Nigmatova Malika**

Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva) ........ 177
**Sabina Urokova**

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi ........ 184
**Daminova Barno Esanovna**

Опыт турции в управлении миграционными кризисами ........ 189
**Бегматов Хусанбек**

Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish ........ 193
**Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li**

Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari ........ 197
**Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich**

Moliyaviy autsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari ........ 202
**San'atbek Komilovish Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov**

Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari ........ 214
**Alimov Fazliddin Xalimovich**

Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации ........ 220
**Котов В.А., Шадиева Д.Х.**

Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar ........ 225
**Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li**

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari ........ 228
**Kasimova Muxlisa Anvar qizi**

Chemical industry in uzbekistan: challenges and development ........ 235
**Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna**

Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari ........ 240
**Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li**

Globallashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytiririshda yashil iqtisodiyotning ahamiyati ........ 246
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati ........ 249
**Siddikov Alisher Ismoilovich**

Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili ........ 253
**Majidov Nizom Baxramovich**

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 259
**Ermatov Nosir Tohirovich**

Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash ........ 265
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna**

Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана ........ 272
**Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна**

O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari ........ 280
**Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li**

Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики ........ 288
**Абдуллаев Абдурауф**

Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari ........ 299
**Kuldoshev Lazizjon Sharifovich**

Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ........ 303
**Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva**

Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash ........ 310
**Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich**

Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari ........ 315
**Azizova Saodat Xabibulloyevna**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi ........ 320
**Karlibaeva Gulshat**

Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri ........ 325
**Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li**

Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish ........ 330
**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**

Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан ........ 336
**Хамракулова Сусанна Тотуховна**

Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash ........ 340
**Ibragimova Gulchexra Toxirovna**

Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari ........ 357
**Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna**

Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях ........ 361
**Muradov Botir Xayat**

Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar ........ 370
**Xushmurotov Zoyir Bektemirovich**

Cultural branding and the entry of traditional products into the international market ........ 374
**Zebiniso Ganiyeva**

Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar ........ 379
**Norqobilov Nusratilla Norsaitovich**

O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash ........ 384
**Umirova Dilnoza Safarovna**

Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan ........ 393
**Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod**

The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market ........ 399
**Juraboev Haliljon**

Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari ........ 404
**Haydarov Jahongir Aktamovich**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar ........ 410
**Quvondiqov Farrux Ibragimovich**

Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari ........ 418
**Dadenova Gulxan Kenesbaevna**

Механизмы усовершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана ........ 422
**Намозов Жасурбек Кувадович**

Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов ........ 428
**Хазиратқулов Собиржон**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран ... 435
**Матлюбов Хуршид Жамшидович**

Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining o‘rni va imkoniyatlari ... 443
**O‘raqov Bekzodbek Abdurayxon o‘g‘li**

Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг ... 448
**Кайыбеков Парахат Конысбаевич**

Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili ... 454
**Toshpulatov Bobur Rasul o‘g‘li**

Qishloq xo‘jaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish ... 458
**Tolibov Shoxrux Muminovich**

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari ... 463
**Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li**

Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan ... 468
**Sattarov R.A.**

Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region ... 476
**Daminova Barno Esanovna**

Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli ... 480
**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

Oliy ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari ... 485
**Salimov Akmal Alimjonovich**

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg‘or xorij tajribalari ... 490
**Shadiyev Alisher Xudoynazarovich**

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg‘i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari ... 496
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

O‘zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari ... 502
**Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich**

Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari ... 508
**Salohiddinov Zuhriddin Nuriddinjon o‘g‘li**

Yoshlar bandligini ta’minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati ... 514
**Masharipov Farrux O‘tkirovich**

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari ... 521
**Xasanova Mavjuda Ma’mirjonovna**

Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari ... 526
**Sa’dulloyev Habibullo Ibodullo o‘g‘li**

Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta’siri ... 530
**Islomjon Nurmukhammadov**

Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash ... 533
**Ismoilova Savinoz Qahramon qizi**

Oliy ta’lim muassalari boshqaruviga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 540
**Karimov Muzaffar Abdumalik o‘g‘li**

Soliq yig‘iluvchanligini oshirishda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari ... 546
**Tojibayev Farrux Baxtiyorovich**

Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan o‘rni ... 552
**Rajabov Sirojiddin Mansurovich**

Korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari ... 561
**Choriyorov Behruz Ilhom o‘g‘li, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Yashil texnologiyalar yordamida O‘zbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yo‘llari ... 567
**Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yoʻllari ........ 572
**To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета ........ 577
**Назарова Ирода Ибрагим кизи**

Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish ........ 583
**Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich**

Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане ........ 587
**Абидова Дилфуза Игамбердиевна**

Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана ........ 593
**Салим Дониёров**

Oʻzbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi ........ 598
**Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li**

Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ning nazariy masalalari ........ 607
**Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov**

Strategic alliance networks as competitive advantage: evidence from mit-tum partnership model at new Uzbekistan university ........ 613
**Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi**

Energetika tarmogʻida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning nazariy asoslari ........ 618
**Uralov Temur Boxodir o'g'li**

Oʻzbekiston bank amaliyotiga ai va simulyatsiya modellarini joriy etish orqali muammoli kreditlarni qaytarish jarayonlarini optimallashtirish ........ 618
**Xodjayev Husniddin Mukammilovich**

Oʻzbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish ........ 624
**Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Jamshid Sharafetdinovich**

Xorazm viloyatida iqtisodiy oʻsish sur'atlarini ta'minlashdagi muammolar va imkoniyatlar ........ 628
**Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li**

Ekologik joylashtirish vositalarida qoʻllaniladigan innovatsiyalar ........ 633
**Abidova Dilfuza Igamberdievna**

Ziyorat turizmini rivojlantirishning metodologik va metodik asoslarini takomillashtirish yoʻnalishlari ........ 638
**Uzaqov Jamshid Norboyevich**

Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini tashkil etish uslubiyatining oʻziga xos xususiyatlari ........ 644
**Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich**

Gaz sanoatining moliyaviy boshqaruvi va milliy iqtisodiyotdagi barqarorlik omili sifatida roli ........ 650
**Ergashev Muhubbek Aslam o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# GAZ SANOATINING MOLIYAVIY BOSHQARUVI VA MILLIY IQTISODIYOTDAGI BARQARORLIK OMILI SIFATIDA ROLI

**Ergashev Muhubbek Aslam o‘g‘li**
PhD mustaqil izlanuvchi
Elektron pochta: emukhubbek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy gaz sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, roli va rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil etilgan. Mamlakatning energetika balansida tabiiy gazning yetakchi o‘rinda ekani asoslab berilib, gaz tarmog‘ining sanoat tarmoqlari barqarorligi, eksport salohiyati va energetik xavfsizlikdagi ahamiyati yoritilgan. Tahlillar asosida gaz sanoatining yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi, bandlikka ta’siri hamda budjet daromadlaridagi o‘rni statistik ko‘rsatkichlar orqali asoslab berilgan. Shuningdek, raqamlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsiya muhitini yaxshilash orqali gaz sanoatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy gaz, energetika resurslari, iqtisodiy o‘sish, gaz sanoati, resurslardan samarali foydalanish, eksport salohiyati, raqamlashtirish.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role, importance, and development prospects of the natural gas industry in the national economy. The leading position of natural gas in the country's energy balance is substantiated, highlighting its significance for industrial stability, export potential, and energy security. Statistical indicators are used to justify the contribution of the gas industry to GDP, employment, and state budget revenues. Additionally, proposals are developed to advance the gas sector through digitalization, efficient resource utilization, and improvement of the investment climate.

Key words: natural gas, energy resources, economic growth, gas industry, efficient resource use, export potential, digitalization.

Аннотация: В данной статье научно проанализирована роль, значение и перспективы развития газовой промышленности в экономике страны. Обосновано лидирующее положение природного газа в энергетическом балансе страны, раскрыта его значимость для устойчивости отраслей промышленности, экспортного потенциала и энергетической безопасности. На основе анализа представлены статистические данные о доле газовой промышленности в валовом внутреннем продукте (ВВП), ее влиянии на занятость и роль в формировании доходов бюджета. Также предложены меры по развитию газовой отрасли через цифровизацию, эффективное использование ресурсов и улучшение инвестиционного климата.

Ключевые слова: природный газ, энергетические ресурсы, экономический рост, газовая промышленность, эффективное использование ресурсов, экспортный потенциал, цифровизация.

## KIRISH

Tabiiy gaz bugungi kunda global iqtisodiyotda eng muhim energetik resurslardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. U ekologik tozaligi, nisbatan arzonligi va yuqori energiya samaradorligi bilan boshqa yoqilg‘i turlariga nisbatan ustunlikka ega. Energiya resurslari ichida tabiiy gazning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani uning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy afzalliklarini ham namoyon etmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tabiiy gaz ko‘p tarmoqli rivojlanishni ta’minlovchi asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Davlat energetika tizimining markazida turgan ushbu resurs yirik sanoat korxonalari, energetika

obyektlari, kommunal xo'jalik va transport tizimi uchun energiya manbai sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, gaz kimyosi, issiqlik elektr stansiyalari, metallurgiya va sement ishlab chiqarish kabi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlarining barqarorligini ta'minlash bevosita tabiiy gaz bilan bog'liq. Mamlakatda mavjud tabiiy gaz resurslaridan oqilona va samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Gaz resurslarini boshqarish tizimida texnologik samaradorlik yetarli darajada emas, hisob-kitob mexanizmlarining noaniqligi esa yo'qotishlarga olib kelmoqda [1].

Tabiiy gaz resurslaridan foydalanish davlat budjeti daromadlarining muhim manbai bo'lib, soliq tushumlari, eksportdan olinadigan valyuta tushumlari hamda davlat ulushiga ega kompaniyalar orqali budjetga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy oqimlar kiritadi. Bunday sharoitda gaz sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va uni qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy gazning iqtisodiy ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu resurs nafaqat energetika xavfsizligini ta'minlashda, balki sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, xorijiy olimlar – J. Stern, M. Bradshaw va I. Overland kabi tadqiqotchilar tabiiy gaz infratuzilmasining geoiqtisodiy ta'siri, narxlar shakllanishi va barqaror ta'minot masalalarini yoritib berganlar.

Mahalliy iqtisodchilar – A. Mamatqulov, S. Saidov va R. Yo'ldoshev kabi mualliflar O'zbekiston sharoitida gaz sanoatining tarmoqaro integratsiyadagi o'rnini, budjetga qo'shgan hissasini va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi ahamiyatini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlar mavzuga asos bo'lsa-da, mazkur maqolada tabiiy gazni rivojlanishning strategik omili sifatida – ya'ni ichki tarmoqdagi samaradorlikni oshirish, eksportda diversifikatsiya va investitsion muhitga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsad qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolani yozishda xalqaro va milliy ilmiy manbalar, statistik hisobotlar hamda tabiiy gaz sanoatining mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga oid iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy modellashtirish, nisbiy tahlil va regressiya usullari orqali qayta ishlanib, raqamli texnologiyalarning barqaror rivojlanishdagi samaradorligi baholandi. Natijalar asosida innovatsion modelning amaliy qo'llanilish imkoniyatlari aniqlangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiiy gaz bugungi kunda global iqtisodiyotda eng muhim energetik resurslardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. U ekologik tozaligi, nisbatan arzonligi va yuqori energiya samaradorligi bilan boshqa yoqilg'i turlariga nisbatan ustunlikka ega. Energiya resurslari ichida tabiiy gazning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani uning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy afzalliklarini ham namoyon etmoqda.

O'zbekiston gaz sanoatida raqamlashtirish jarayonlari so'nggi yillarda sezilarli faollik kasb etmoqda. Xolbo'tayev fikriga ko'ra, ushbu yo'nalishda ijobiy siljishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, sohadagi transformatsiya muammolari hanuz dolzarbdir. Jumladan, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirida axborot texnologiyalarining cheklangan joriy etilishi, infratuzilmaning eskirganligi va malakali mutaxassislar yetishmovchiligi raqamlashtirish samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Gaz sanoatida raqamli boshqaruv platformalarini keng joriy etish, real vaqtli monitoring tizimlarini yaratish va iste'molchilar bilan hisob-kitoblarni avtomatlashtirish asosiy strategik yo'nalishlardandir [2].

Tabiiy gaz – energiya manbai sifatida yuqori ahamiyatga ega bo'lgan yoqilg'i turi bo'lib, elektr energiyasi ishlab chiqarish, isitish tizimlari hamda sanoatning turli texnologik jarayonlarida keng qo'llaniladi. Issiqxona gazlari chiqindilarining kamaytirilishiga qaratilgan global tashabbuslar fonida tabiiy gazning neft va ko'mirga nisbatan past karbonat angidrid ($CO_2$) chiqindilariga ega ekani uni muqobil energiya manbai sifatida alohida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, gaz sanoati ishlab chiqarish, uzatish va saqlash infratuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Gazni qazib olish joyidan to yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish ko'p bosqichli quvur tarmoqlari, saqlash inshootlari va logistik tizimlarni talab etadi. Shu jumladan, suyultirilgan tabiiy gaz (LNG) texnologiyasi orqali uzoq masofalarga tashish uchun maxsus kemalar, terminal inshootlari va qayta gazlashtirish quvvatlari zarur hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, gaz infratuzilmasining xavfsizligi, uzluksizligi va energiya samaradorligini ta'minlashda yirik investitsiyaviy resurslarni, shuningdek ilg'or texnologik va muhandislik tajribasini talab etadi.

Natijaviy jihatdan, gaz sanoati yuqori kapital sig'imli, texnologik murakkablik darajasi yuqori va xavfsizlik talablariga nisbatan juda sezgir tarmoq bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi uchun moliyaviy barqarorlik va oqilona investitsiyaviy boshqaruv muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tarmoqda kredit yuki va investitsiya oqimlarining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy va strategik ahamiyatga ega masala sanaladi.

Gaz sanoati zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etadi. Bu tarmoq nafaqat energetika xavfsizligini ta'minlashda, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, tabiiy gaz eksport qiluvchi mamlakatlar uchun u muhim daromad manbai bo'lib, davlat budjetini to'ldirish, infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash imkonini beradi. Shuningdek, moslashuvchan gazlashtirish tizimlari orqali uzoq va chekka hududlarda energiya manbalariga bo'lgan talab qondiriladi, bu esa aholining hayot sifati va ijtimoiy farovonligini oshiradi. Gaz sanoatining rivojlanishi hududiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Biroq bugungi global tendensiyalar, jumladan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish zarurati gaz sanoati oldiga yangi chaqiriqlarni qo'ymoqda. Shu bilan birga, bu holat yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

- slanetsli gaz ishlab chiqarish texnologiyalari;
- qayta tiklanuvchi gaz (biometan, sintetik gaz) turlarini rivojlantirish;
- energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etish.

Kelajakda aralash energetika tizimlari (gibrid yechimlar) orqali tabiiy gazni boshqa energiya manbalari bilan uyg'unlashtirib foydalanish tendensiyasi ortib boradi. Bu esa gaz sanoatining barqaror rivojlanishiga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga va energetika xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, gaz sanoati nafaqat an'anaviy energiya ta'minoti manbai, balki iqtisodiy barqarorlik va yashil rivojlanish yo'lida ham muhim strategik tarmoq sifatida shakllanmoqda.

Gaz sanoati zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning energiya xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Tabiiy gaz ko'plab davlatlar uchun asosiy energiya manbai hisoblanadi va energetika aralashmasining xilma-xilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatlarning energiya resurslariga bo'lgan bog'liqligini kamaytiradi va energetika tizimining barqarorligini oshiradi.

Bundan tashqari, gaz mahsulotlari ko'plab davlatlar uchun eksportning asosiy turlaridan biri sanaladi. Ular iqtisodiy o'sishga turtki bo'lib xizmat qiladi, xorijiy valyuta tushumlarini oshiradi hamda xalqaro investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, tabiiy gaz resurslariga ega bo'lgan davlatlarda energetika sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Gaz sanoati o'z mohiyatiga ko'ra yuqori texnologiyali va kapital talab qiluvchi tarmoqdir. Tabiiy gazni qazib olishdan to iste'molchigacha yetkazib berishgacha bo'lgan butun jarayon murakkab infratuzilmaga asoslanadi. Bunday infratuzilma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuqori bosimli gaz quvurlari tarmog'i,
- yer osti gaz saqlash omborlari,
- suyultirilgan tabiiy gazni tashish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan
- kemalar (LNG tankerlar),
- gazni qayta ishlash va ajratish majmualari.

Mazkur infratuzilmalarni barpo etish va ularni samarali ishlatish yirik sarmoyalarni, zamonaviy texnologiyalarni hamda malakali muhandis-texnik resurslarni talab qiladi. Shu jihatdan, gaz sanoati ko'plab sohaga turtki beradi: transport-logistika, qurilish, geologiya, muhandislik texnologiyalari va axborot tizimlari kabilar.

Gaz sanoati iqtisodiy rivojlanish, energetika xavfsizligi, sanoat kooperatsiyasi va innovatsion infratuzilma barpo etishda muhim rol o'ynaydi. U strategik resurs sifatida milliy manfaatlar va global energiya siyosatining markazida turadi.

Gaz sanoati — bu tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, tashish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu sanoat sohasi murakkab texnologik jarayonlarga asoslangan bo'lib, mamlakatning energetika infratuzilmasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Tabiiy gaz — toza, samarali va ekologik jihatdan nisbatan xavfsiz yoqilg'i turi bo'lib, uni iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida qo'llash mumkin. Jumladan: energetika sohasida — elektr energiyasi ishlab chiqarishda, sanoatda — texnologik yoqilg'i sifatida, transportda — siqilgan (CNG) yoki suyultirilgan (LNG) gaz shaklida yoqilg'i sifatida, aholi ehtiyojlari uchun — isitish, ovqat pishirish va issiq suv ta'minotida keng qo'llaniladi.

Tabiiy gazning yuqori issiqlik samaradorligi, past chiqindi darajasi va iqtisodiy jihatdan maqbulligi uni muqobil energiya manbalariga nisbatan ustunlikli qiladi. Shu bois, gaz sanoati nafaqat iqtisodiy samaradorlikni,

balki energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim omil sanaladi. Gaz sanoati zamonaviy jahon iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy gaz qazib olish jarayonlari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida faol amalga oshirilmoqda. Xususan, Rossiya, AQSh, Kanada, Qozog‘iston, Eron, Qatar va boshqa Yaqin Sharq davlatlari global gaz ishlab chiqarish va eksport bozorida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu davlatlar zamonaviy texnologiyalar, katta qazib olish quvvatlari va rivojlangan transport infratuzilmasiga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Tabiiy gazni tashish asosan gaz quvurlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu quvurlar gaz qazib olinadigan joylarni iste’molchilar bilan bog‘laydigan asosiy infratuzilmaviy vositadir. Gaz quvurlari ikki asosiy toifaga bo‘linadi: milliy (ichki) gaz quvurlari — mamlakat ichida ishlab chiqarilgan gazni hududlar bo‘ylab taqsimlaydi; xalqaro (transchegaraviy) gaz quvurlari — bir nechta mamlakatlar hududidan o‘tib, eksport-import faoliyatini ta’minlaydi (masalan, “Turk Stream”, “Nord Stream”, “Trans-Anatoliya gaz quvuri”).

Tabiiy gaz savdosi esa milliy va xalqaro bozorlarda amalga oshiriladi. Bozor narxlari quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi (1-jadval):

1-jadval. Tabiiy gaz savdosida bozor narxlariga ta`sir qiluvchi omillar

| № | Omillar |
|---|---|
| 1 | Global talab va taklif muvozanati |
| 2 | Neft va ko‘mir kabi muqobil yoqilg‘ilar narxi |
| 3 | Mintaqaviy va global geosiyosiy vaziyatlar (urushlar, sanksiyalar, transport yo‘llarining xavfsizligi) |
| 4 | Ob-havo sharoiti va mavsumiylik (ayniqsa, qish oylarida iste’mol hajmi ortadi) |
| 5 | Gazni saqlash imkoniyatlari va rezervlar hajmi |
| 6 | Valyuta kurslari va eksport-import siyosati |

Xususan, Yevropa Ittifoqi, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi va Shimoliy Amerika kabi yirik iste’molchi hududlarda tabiiy gazga bo‘lgan talabning ortib borishi bu tarmoqni global energetika tizimidagi ustuvor sohalardan biriga aylantirmoqda.

Tabiiy gaz bugungi kunda global energiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlarda ham faol ravishda sotilmoqda. Uning narxlari shakllanishiga bir nechta kompleks omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, tabiiy gazga bo‘lgan global va mintaqaviy talab hamda taklif nisbatlari, neft, ko‘mir va elektr energiyasi kabi muqobil energiya manbalarining narxlari, valyuta kurslarining o‘zgarishi, transport xarajatlari, saqlash quvvatlarining mavjudligi, shuningdek, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, geosiyosiy vaziyatdagi beqarorlik, xususan, yirik gaz eksport qiluvchi davlatlardagi siyosiy ziddiyatlar, sanksiyalar va harbiy mojarolar ham xalqaro gaz narxlarining keskin o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 2022-yildan boshlab Rossiya–Ukraina inqirozi fonida Yevropadagi gaz narxlari bir necha baravar oshgani kuzatildi.

Bunday holatlar tabiiy gaz bozorining o‘ta sezgir va noturg‘un ekanligini ko‘rsatadi hamda gaz narxlarini bashorat qilishni murakkablashtiradi. Shu sababli, tabiiy gaz narxini tahlil qilishda statistik va ekonometrik modellardan foydalanish bozor ishtirokchilari uchun muhim strategik qarorlarni qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Gaz sanoatining asosiy tarmoqlari

Tabiiy gazni qazib olish — bu bosqich yer ostidagi tabiiy gaz konlarini o‘rganish, qazib olish quduqlarini burg‘ulash va gazni yer yuzasiga chiqarishni o‘z ichiga oladi. Qazib olingan gaz tarkibida boshqa aralashmalar bo‘ladi va uni keyingi bosqichlarda tozalash talab etiladi.

Gaz tashish (transporti) — tabiiy gaz maxsus magistral gaz quvurlari (gazoprovodlar) orqali yirik iste’molchilarga yoki saqlash inshootlariga yetkaziladi. Ba’zan quvurlar orqali xalqaro tranzit ham amalga oshiriladi. Suv yo‘llari orqali tashish uchun esa gaz suyuqlantirilgan holatga keltiriladi.

Gazni saqlash — tabiiy gazni mavsumiy talab o‘zgarishlariga mos ravishda taqsimlash uchun uni yer osti rezervuarlarida (masalan, tugatilgan konlarda yoki sun’iy kavernalarda) saqlash texnologiyasi qo‘llaniladi. Bu tizim gaz ta’minotining barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Gaz taqsimoti (distribyutsiyasi) — bu bosqichda gaz mahalliy quvurlar orqali turar joylar, sanoat obyektlari va boshqa iste’molchilarga yetkazib beriladi. Mahalliy taqsimot tarmoqlari yuqori xavfsizlik va uzluksiz ta’minotni talab qiladi.

Suyultirilgan tabiiy gaz (LNG) ishlab chiqarish — LNG bu gazni –160 °C gacha sovitib, suyuqlikka aylantirish orqali hajmini 600 barobarga kamaytirish texnologiyasidir. U uzoq masofalarga eksport qilishda, ayniqsa dengiz yo‘llari orqali tashishda qo‘llaniladi.

Gaz kondensati ishlab chiqarish — qazib olingan tabiiy gaz tarkibida suyuq uglevodorodlar (kondensat) bo‘ladi. Bu moddalar ajratib olinadi va alohida sanoat xom ashyosi sifatida qayta ishlanadi. Gaz kondensati kimyo sanoatida ham keng qo‘llaniladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tabiiy gaz resurslari ko‘p tarmoqli iqtisodiy rivojlanishning strategik omili sifatida xizmat qilmoqda. Tabiiy gaz nafaqat mamlakatning ichki energiya ehtiyojini qondirish, balki sanoat tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta’minlash, eksport orqali valyuta tushumlarini shakllantirish va bandlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

Tabiiy gaz sanoatning, ayniqsa gaz kimyo, metallurgiya, sement, issiqlik energetikasi sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Gaz eksportidan olinadigan valyuta tushumlari davlat budjetining barqaror daromad manbai bo‘lib, makroiqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Gaz infratuzilmasi rivojlangan hududlarda iqtisodiy faollik va ijtimoiy farovonlik darajasi yuqori bo‘lib, bu resursning mintaqaviy rivojlanishdagi rolini ko‘rsatadi.

Tabiiy gaz ekologik jihatdan toza yoqilg‘i bo‘lib, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida muhim energiya manbai sifatida e’tirof etiladi.

Tabiiy gaz qazib olish va qayta ishlash texnologiyalarini modernizatsiya qilish lozim, chunki eskirgan texnologiyalar resurslar samaradorligini pasaytiradi va xarajatlarni oshiradi.

Ichki iste’molchilarga nisbatan tarif siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvozanatlashtirish kerak. Bu aholining to‘lov qobiliyatini hisobga olgan holda, korxonalar uchun motivatsion tariflarni joriy etishni talab etadi.

Tabiiy gaz eksportini faqat xomashyo shaklida emas, balki qayta ishlangan mahsulotlar ko‘rinishida amalga oshirish orqali mamlakatga qo‘shilgan qiymatni saqlab qolish mumkin (masalan, GTL loyihasi, metanol, ammiak).

Gaz infratuzilmasi yetib bormagan hududlarda modernizatsiya va kengaytirish loyihalarini jadallashtirish mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Gaz sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun huquqiy bazani takomillashtirish kerak. Jumladan, shartnoma shaffofligi va investitsiyalarni himoyalash kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida tabiiy gaz zaxiralarini diversifikatsiya qilish va muqobil energiya bilan uyg‘unlashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Odilov,S., &Mamadaliyev,I. (2021). Tabiiy gaz resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 3, 45-51;
2. Xolbo‘tayev, A. (2022). O‘zbekiston gaz sanoatida raqamlashtirish jarayonlari: muammo va istiqbollar. Milliy iqtisodiyot muammolari, 6, 60-67;
3. Рахманкулов Д.Л.,Джафаров Ф.К. Из истории искусственных горючих газов //Нефтегазовое дело. -2005.-№3;
4. Джафаров К.И., Джафаров Ф.К. Зарождение и становление газового дела. - М. ВНИИГАЗ, 2002;
5. Porter, M.E. and Kramer, M.R., (2006). Strategy & society. The link between competitive advantage and corporate;
6. Cherp, A, Jewell, J. and Goldthau, A., (2011). Governing global energy: systems, transitions, complexity. Global Policy, 2, pp.75-88;

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 7**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz